

Hozirgi o’zbek adabiy tili davrida qo’llanilib kelayotgan sabab ma’nosini ifodalovchi qo’shimchalar

Shodmonkulova Yulduzxon Bahodir qizi

yulduzsaydazimova_97@gmail.com

Lingvistika (o’zbek tili) bo'yicha tadqiqotchi-pedagog.

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz o’zbek tilida sabab ma’nosini anglatib keladigan qo’shimchalar, ularning gaplarda qo’llanilishi yuzasidan misollar orqali bilim va tafakkurga ega bo’lasiz.

Kalit so’zlar: Sabab, sabab-natija, qo’shimcha, yuklama, birikma, shart mayli, qo’shma gap.

Hozirgi o’zbek adabiy tilida sabab ma’nosini ifodalovchi vositalar ko’lami qadimgi turkiy adabiy tili va eski o’zbek tili davriga nisbatan anchayin keng ko’lamli. Ular yordamchilar, so’zlar va birikmalar shaklida kelib, sabab ma’nosini yuzaga chiqaradi.

Sabab ma’nosini anglatib keluvchi affikslar ham anchayin bo’lib, ular orqali sabab ma’nosi yanada yaqqolroq namoyon bo’ladi.

-ki yuklamasi sabab ergash gap bilan bosh gapni bog’laydi. Bunday qo’shma gaplarda qismlarni bog’lovchi -ki ergash gapning kesimi tarkibida keladi. Ko’pincha ergash gapning kesimi sabab ma’nosi bilan bog’liq bo’lgan so’zlar orqali ifodalanib, bosh gap shu sababning natijasini ko’rsatadi. Ergash gaplarning kesimi sifat, ot yoki bor so’zi bilan ifodalanadi: Baxtim borki, har narsa go’zal ko’rinadi mening ko’zimga (H.Olimjon). Azamatlar, shunga nihoyat xursandmanki, qarigan chog’imda cho’lning husnini ochish uchun ter to’kish menga nasib bo’ldi (Oybek). O’ktam stolni bir pastda rango-rang mevalar bilan yashnatib yuborganki, endi Muxtorov bu isrifgarchilik uchun undan ranjidi (Oybek).

ki bog’lovchi yordami bilan tuzilgan ergash gapli qo’shma gaplarda shuning uchun, shu vajdan kabi bog’lovchilar bo’lishi ham mumkin. Bunda bosh va ergash gap orasidagi ma’no munosabati yanada jipslashadi, ergash gapga bo’lgan talabning ahamiyati kuchayadi: Men buni shuning uchun qilamanki, biz qochib bir tomonga borganimizda, unda biror ish topgunimizgacha ham pul kerak. (S.A.)

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

Qismlari –ki yordamchisi orqali birikadigan qo’shma gapning ergash gap qismida gumon ma’nosini bildiruvchi elementi qo’shilib kelib, bosh gapdagi harakatning yuzaga kelishidagi aniq sababni emas, gumon qilingan, taxmin tutilgan sababni bildiradi: Bir narsasi bordirki, do’q qiladi. Bironta dalili bordirki, sizning oldingizga kelgan. (A.Qahhor)¹

O’rin kelishigi –**da** orqali ham sabab mazmuni oydinlashadi: Qattiqroq taqillat. Momoqaldiroqda eshitmayapdilar. (O’.Hoshimov) Ya’ni Momoqaldiroq sababli eshitmayapdilar, desak, sabab ma’nosi yanada yaqqolroq namoyon bo’ladi.

...bechora erining dardida jinni bo’lib qoldi. (A. Qahhor)

Jo’nalish kelishigi –**ga** affaksi orqali ham sabab ma’nosini ifodalasa bo’ladi: Olimjon o’rnimdan turganimga quvonib ketdi. (O’. Hoshimov)

-ga jo’nalish kelishigi qo’shimchasi ot, olmosh, sifatdosh, sabab ravishi kabilarga birikib, gapda sabab holi vaifasida keladi va sabab mazmunini aniqlashtirib keladi: Uning mag’lubiyatiga chidab tura olmadim. (“Mushtum”) Shunga xursandmanki, ular “Elobod”ni bilishar ekan. (Oybek) La’li ...xo’rlanganiga xo’rligi kelib piq-piq yig’ladi. (H.G’ulom) Ey, huda-behudaga arazlayverma!

Chiqish kelishigi –**dan** bilan ham sabab mazmunini ifodalasa bo’ladi: ...yomg’irdan ho’l bo’lib ketgan yuzidan o’pdim. (O’. Hoshimov) ...dedi g’azabdan ko’zlar yonib. (O’. Hoshimov)

-dan chiqish kelishigi sabab-natija holi vazifasida keladi, so’rog’i nima sababli? bo’ladi (bu holat juda kam uchraydi): ...ustida o’ziga keng jigar rang tujurka, tizzalari qora moydan yaltiragan galifi shim... (A.Q)

-dan chiqish kelishigi qo’shimchasi ot, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh, taqlid so’zlarga qo’shilib, gapda sabab holi vazifasida keladi: Abdushukur jahldan shaq-shaq titradi. (Oybek) U qalt-qalt titraydi. Shundan aytgani aytgan gapini ayta olmaydi. ...sir ochilib qolishidan qo’rqar edik (G’G’ulom) Odil uyalganidan qizarib ketdi. (Oybek) Uning kelayotganini sezmasdan eshikni qattiq yopdi. (“Mushtum”) Taqir-tuqurdan quloqlar batang bo’ldi.

Insonning ruhiy holatini ifodalovchi xursand, xafa, mamnun, tinch, notinch kabi sifatlar chiqish kelishigi formasidagi otlarni boshqarib keladi. Bu sifatlar boshqaruvidan yuzaga kelgan birikmalarda asosan sabab munosabati ifodalanadi: Kelganindan xursandman. (S.Jamol) Hikmatning kelishidan Karomat xola ham

¹ O’zbek tili grammatikasi. II tom, Sintaksis. – T.: Fan 1976. 368-b.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

xursand. (Y.Shomansur) Daryolarim g’azabdan notinch. (J.Jabborov) Sevganim, surshid jamolim vaslidan xushnud ko’ngil. (E.Vohidov)

Ba’zan asliy sifatlardan ham (rang biltiruvchi asliy sifatlar) ayrimlari –ligidan, -ganidan shaklidagi so’zlarni boshqarib, sabab munosabatini ifodalovchi birikmalarni hosil qiladi: yuvilmaganidan qora, oftob ko’rmaganidan oppoq kabi.²

Chiqish kelishigi affiksi va bilan ko’makchisi sabab ma’nosini anglatganda sinonim bo’la oladi, ya’ni biri o’rnida ikkinchisini ishlatish mumkin bo’ladi: To’g’on qurilishidagi ish mening o’jarligim bilan barbod qilinishiga sal qoldi.// o’jarligimdan

Sabab ergash gap bosh gapga –**b(-ib)** formasidagi ravishdosh orqali bog’lanadi: Xolmurod anchagacha onasini eslab, yuragi ezilib ketdi. Dilim qondur, shirin o’g’lon, qizlarim, muhabbatli dilbarimni sog’inib.³

-b(-ib) sodda gapda ko’pincha hol vazifasida keladi, ya’ni sababni ma’nosini anglatsa, sabab holi vazifasida keladi. Bunday vaqtida ko’pincha gapning fe’l kesimi bo’lishsiz shaklda kelib, ravishdosh o’sha harakatning yuzaga kelmaslik, bajarmaslik sababini ko’rsatadi: uyalib gapira olmadi, kasal bo’lib darsga kelmadi.

Sabab mamzunini ifodalagan ravishdoshniing –ib shakli –mi yuklamasi bilan qo’llanishi mumkin. Agar ma’lum harakat-holatning ro’y berish yoki bermasligi shubhali bo’lsa yoki bir qancha sabab keltirilsa, ravishdoshning ana shunday shakli ishlatiladi: ...Oyinaning tarafini olibmi yoki unga kinoya qilibmi, har holda achinib gapirganlar ham bo’ldi.⁴

Sabab ma’nosini bildirgan bunday ergash gapni boshqa vosita bilan ifodalasak, undagi sabab mazmuni yanada aniqroq seziladi: Xolmurod anchagacha onasini eslab, yuragi ezilib ketdi. – Xolmurod anchagacha onasini eslagani uchun, yuragi ezilib ketdi.

Sabab ergash gapning kesimi ravishdoshning bo’lishsizlik formasi –**may** bilan ifodalanib, bosh gapga bog’lanishi mumkin: Ko’pincha suv tashiydigan odam topilmay, suvsiz o’tiramiz. (Oybek) Boyning so’zi o’tmay, yerga kuchi yetmay, qishloqdan chiqib ketdi. (Po’lkan)

Ravishdoshning –**may** affiksini olgan shakli sodda va qo’shma gaplar tarkibida keladi. Sabab ergash gapli qo’shma gaplar tarkibida kelib, bosh gapdagi harakatning bajarilmay qolish sababini ko’rsatadi: O’tapning bitay degan ishi bitmay, Tozagul oilasi ko’chib ketdi. (H.G’ulom)

² O’zbek tili grammatikasi. I tom, Sintaksis. – T.: Fan 1976. 231-b

³ A.G’ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – T.: O’qituvchi 1987. 226-b

⁴ O’zbek tili grammatikasi. II tom, Sintaksis. – T.: Fan 1976. 217-b.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

Sabab ergash gap bosh gapga **-gach** formasidagi ravishdosh yordami bilan bog’lanadi. Bunday ergash gapning mazmunidan sabab ma’nosi bilan birga, payt ma’nosи ham anglashilib turadi. Ko’pincha bu xildagi birikkan qismlarning bosh gap qismidagi fe’l kesim o’tgan zamon shaklida bo’ladi: Bolasi bu yerda student bo’lgach, otasi osuda va ko’ngli to’qdir. (G’.G’ulom) Zayniddin shikoyatlanib qistagach, u qaddini bir oz ko’tarib, tokchadagi xatni olib, do’stining qo’liga tutqazdi. (Oybek)

Kesimi –gach affiksini olgan ravishdosh orqali ifodalangan ayrim ergash gaplarni sabab ergash gap deyish mumkin. Bunday qo’shma gaplarda ravishdoshning –gach affiksini olgan formasi o’rnida turli sabab bog’lovchilari yoki yordamchilarini ham qo’llash mumkin: Anvar hech tinchimagach, dadam rozi bo’ldilar. Anvar hech tinchimagani uchun dadam rozi bo’ldilar; Anvar hech tinchimaydi, shuning uchun dadam rozi bo’ldilar…

Agar ergash gapning fe’l kesimi tarkibida bo’lishsizlik affiksi –ma ishtirok etgan bo’lsa, ergash gapdagi sabab mazmuni aniqroq ko’rinadi. Bunday ergash gaplarni sabab ergash gap hisoblash mumkin.

Odatda bir xilda birikkan qismlarning bosh gap qismidagi fe’l kesim o’tgan zamon shaklida kelgan bo’ladi: Otasi o’sha kuni kelmagach, ularni vahima bosdi. (A.Qahhor) Uzoq kengashdan so’ng biror ma’qul chora topilmagach, hujra to’rida o’tirgan Alouddin Mashhadiy uzun pechi osilgan katta sallali boshini chyqabachina ketdi. (Oybek)

-(a)y ravishdosh shakli orqali ham sabab ma’nosi ifodalanadi: U bu mudhish voqeaga chiday olmay turardi.

-masdan shakli ham sabab mazmuni ifodalanishi mumkin: Uning kelayotganini sezmasdan eshikni qattiq yopdi. (“Mushtum”)

Sabab ergash gapning kesimi **-mi** yuklamasi bilan birga kelib, bosh gapga bog’lanadi. Bunday ergash gaplar so’roq shaklida tuzilgan bo’lsa ham, unda so’roq mazmuni emas, taxminiy sabab mazmuni ustun turadi. So’zlovchi o’zi uchun noaniq bo’lgan shu sababni ikkinchi darajali faktday qilib, kirish konstruksiya holida bayon qiladi: Omadimiz kelgan ekanmi yo qurt boqishni sog’inib qolgan ekanmizmi – biram bo’lib berdi, qani endi terib tamom qilolsak. (A.Qahhor) Bola, biror narsa chaqib oldimi, birdan g’ingshib yig’lab yubordi. (A.Muxtor)⁵

⁵ A.G’ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – T.: O’qituvchi 1987. 227-b.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

Ayrim hollarda sababning umumga ma'lumligi ta'kidlanib, bunda sabab bilan natijaning uzviy bog'liqligi ham umumga ma'lum tagbilim sifatida anglashilib turadi. Shuning uchun ham sabab voqeа ifodalangan ergash gapning iredikati bo'lishsiz shaklda bo'lib, -mi yuklamasini olgan bo'ladi: Saraton quyoshi yer-u ko'kni yondirib, atrofga olov purkayotgan bir palla emasmi, katta-kichik o'zini choyga uradi. (X.To'xtaboyev)

-mi elementi –gani uchun yordamchisi bilan qo'llanib, ergash gapdagi sababga ikkilanib qarash ma'nosini anglatadi: Boroz dalada ishlagani uchunmi, jangovar do'stlari yoniga borish qarori qat'iy bo'lgani uchunmi, bugun unga dam olish juda rohat tuyuldi. (A.Muxtor)

Bundan tashqari –mi yuklamasi bilan **negadir** so'zi ham keltirilib, sabab ma'nosini yuzaga keltiradi: Hamon xotini tikilib turgani boismi, negadir duduqlanib izoh berdi. (N.Qilichev)

Taxminiylit juda kuchli bo'lganda, ba'zan ayni holatdagi birdan ortiq sabab ergash gap tarzida keltirilishi mumkin: Bilimi sayozlik qildimi yo omadi chopmadimi, ishqilib, qora chamadonni daranglatib yana Qorasuvga qaytdi. (S.Siyoyev)

Ayrim hollarda sababning umumga ma'lumligi ta'kidlanadi, bunda sabab bilan natijaning uzviy bog'liqligi ham umumga ma'lum tagbilim sifatida anglashilib turadi. Shuning uchun ham sabab voqeа ifodalangan ergash gapning iredikati bo'lishsiz shaklda bo'lib, -mi yuklamasini olgan bo'ladi: Saraton quyoshi yer-u ko'kni yondirib, atrofga olov purkayotgan bir palla emasmi, katta-kichik o'zini choyga uradi. (X.To'xtaboyev)

Jonli tilda (ba'zan adabiy tilde ham) bunday ergash gaplardan keyin deyman so'zi qo'shilib keladi. Bu so'z o'yash ma'nosida ishlatilib, ergash gapdagi sababni belgilashdagi ikkilishni yana kuchliroq qilib ta'kidlab ko'rsatadi: Saratonning jazirama kunida tug'ilgan ekanmi deyman – oftob hech ta'sir qilmaydi. (“Sharq yulduzi”) Bizdan xafa bo'lганми deyman, ko'rishgisi kelmaydi.

Sabab ergash gapning kesimi o'tgan zamon sifatdoshi+chiqish kelishigi qo'shimchasi orqali ifodalanganda ham –mi yuklamasi bilan birga qo'llanib, noaniq sababni ifodalashi mumkin: Kozimbek shu gapni aytishga aytdi-yu, domlasidan olgan ta'limini birinchi marta ishlatganidanmi yoki tili shundoq desa ham yosh ko'nglining allaqaysi burchi uni yolg'onchiqilayotganidanmi, har nechuk qulqolarigacha qizarib, kiyik ko'zlar yiltirab ketdi. (A.Qahhor)

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

-sa shaklidagi fe'lli qurilmalar ichida sabab qurilmalar ham bor. Bunday qurilmalar fe'l kesimi sodda gaplar tarkibiga kiritilganligi kuzatiladi. Ular ko'pincha kelasi zamonni ko'rsatadi. Ular tarkibiga kiritilgan sabab qurilmalar zamonni so'zlovchi uchun ma'lum bo'lmaydi: O'zi to'qigan qo'shiqlarni eshitsangiz, yuragingiz suv bo'lib oqadi. (S.Zunnunova) Dovdirab qolsa, odam ustidan oshib o'tadi. (T. Murod) Mamlakatimiz ichkarisida biror qonunni buzsang, jazosini o'zing yakka tortasan. (A.Qahhor)

Bu gaplarning hammasida ham kesimi kelasi zamonni ko'rsatib kelgan. Bu gaplarning birinchisida o'zi to'qigan qo'shiqlarni eshitsangiz, ikkinchisida dovdirab qolsa, uchinchisida mamlakatimiz ichkarisida biror qonunni buzsang –sa shaklidagi fe'lli qurilmalar sabab qurilmalardir. Ular kesimi zamon ko'rsatmagan. Bu qurilmalar o'zi kiritilgan sodda gapdan anglashilgan harakat va holatning bajarilishi uchun sabab ma'nosini bergen.

Sabab ergash gap qismlari kesimi –sa+kerak tarzida shakllanadi; bunda sabab ma'nosi ehtimol ma'nosi bilan birqalikda ifodalanadi. Quyidagi qo'shma gap qismlarida bajaruvchilar boshqa-boshqa:

a) Ega har ikki qismda ifodalanadi: Boshqalar ham shunday deb o'ylasa kerak, na birov uni ziyofatga taklif qildi, na kuzatib qo'ydi (O. Yoqubov).

b) Ega birinchi qismda ifodalanadi: Saidiyning indamaganini Ehson rozilik deb tushungan bo'lsa kerak, spektakl tamom bo'lgandan keyin Saidiyni o'z uyiga tomon boshladi (A. Qahhor). Qiz, chamasi, o'z qahramoning holatini tasavvur qilib ko'rayotgan bo'lsa kerak, chuqur o'yga tolgan edi (O'. Hoshimov).

Sabab ergash gapli qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi –sa kerak yordamchisi shekilli yordamchisiga sinonim bo'lib keladi.

Ayrim vaqtida –gani uchun yordamchisidan so'ng bo'lsa kerak so'zлari qo'shilib kelib, taxminiy sabab ma'nosi anglashiladi: O'rmonjon buni hech qachon hisoblab ko'rmagani uchun bo'lsa kerak, Siddiqjon javob bermay iljaydi. (A.Qahhor)⁶

Fe'lning shart maylining bo'lishsiz formasi bo'lgan –mas shakli orqali ham sabab ma'nosini ifodalash mumkin: El yasharmas, yer ko'karmas; Bo'lmasa ilhomchisi (A.To'qay). Hech narsam bo'lmasa, sizga na deyin. (E. Jumanbulbul)

-(a)r+ekan shakli ham sabab ma'nosini bildirib keladi: Kechani kecha, kunduznu kunduz demay ter to'kar ekanmiz, turmushimiz ham farovon bo'lishi shart.

⁶ O'zbek tili grammatikasi. II tom, Sintaksis. – T.: Fan 1976. 401-b.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

-gan+ekan shakli ham sabab ma’nosini anglatib keladi va ekan to’liqsiz fe’li bilan kelgan fe’l sabab ergash gap kesimi bo’lib keladi: O’z ixtiyorimiz bilan bu vazifani zimmamizga olgan ekanmiz, bo’ynimizga olgan yukni “endi ko’tara olmaymiz” deb yarim yo’lda tashlash biz uchun order, aybdir. (S.Ayniy)

-gandan+keyin (so’ng). Ergash gap bosh gapga chiqish keilshigidagi sifatdoshdan so’ng keyin (so’ng) ko’makchisini keltirish bilan bog’lanadi: Siddiqjon javob qaytarmay jim turganidan keyin, onasi gap ochishga, uning bevaqt kelganlik sababini surishtirishga majbur bo’ldi. (A. Qahhor) O’zim masterovoy bo’lganimdan so’ng o’rtoqlarim kimbo’lardi? (A. Muxtor)

Bunday ergash gaplarda sabab ma’nosi bilan birga payt ma’nosi ham anglashiladi. Bu turdagи sabab ergash gapning qachon? savoliga emas, balki nima uchun? savoliga javob bo’lishi aniqroq seziladi: U tez boraman deb turganidan keyin, men ijozat berdim gapini U tez boraman deb turgani uchun, men ijozat berdim tarzida o’zgartsak, ergash gapning sababini anglatishi yanada ravshan bo’ladi.

-ganidan

-ganligidan

-ganiga

-gani uchun

-gani sababli

-gani tufayli

Bu shakllar sabab ma’nosini ifodalaydigan sabab hollovchisi sanaladi. Ergash gap bosh gapga chiqish kelishigidagi sifatdosh –ganidan formasi yordami bilan bog’lanadi: Turdi uning bosiq gapirayotganidan dadillandi (P.Qodirov). U sevinganidan qichqirib yubordi.

Ergash gap bosh gapga sifatdoshdan so’ng uchun ko’makchisini keltirish bilan bog’lanadi. Bu xildagi bog’lanishda sifatdosh egalik qo’shimchasi va –lik affiksini olishi mumkin: Nigor opa Mehri opaning, Aziz Nafisaning ko’ngil maylini bilgani uchun ...sovchilarni tag’in kiritdilar (H.G’ulom).

Ergash gap bosh gapga sifatdoshdan so’ng sababli, tufayli, orqasida so’zlarini keltirish bilan bog’lanadi. Bunda ham sifatdosh egalik qo’shimchasi va –lik affiksini olgan bo’ladi: Mirzakarimboy Yo’lchining mehnat haqini o’z vaqtida to’lay bermay, uni haqorat qilganligi, xo’rlaganligi sababli Yo’lchi hech kimga aytmasdan arazlab, xo’jayinning dargohidan chiqib ketdi (Oybek). Dalada ishning tig’iz vaqtি o’tganligi tufayli, mardikorlarga bundan bir necha kun ilgari javob berilgan edi. Bu hol madrasa

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 10. October 2024

dunyosida juda oddiy va tabiiy hodisa bo’lgani orqasida, ularning asabiy shovqiniga atrofdagilardan hech kim e’tibor qilmas edi.

Sintaktik shaklning bunday morfologik shakl paradigmasi a’zolari ergash gapning kesimi vaziyatida keladi va sabab ma’nosini ifodalaydi.



Research Science and Innovation House